



OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI OLDINI OLİSH BO‘YICHA HARKATLARGA KUCH TUZİLMALARINI TAYYORLASH

Axmedov Yolqin Yakubovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklarni kelib chiqish sabablari, ularning ijtimoiy xavfi va ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda kuch tuzilmalar harbiy xizmatchilarini samarali o‘qitish bo‘yicha xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tartibsizliklar, zamonaviy texnologiyalar, jamoat tartibi.

Аннотация: В данной статье будут сделаны выводы о причинах возникновения массовых беспорядков, их социальной опасности и об эффективном обучении военнослужащих силовых структур предупреждению массовых беспорядков.

Ключевые слова: Массовые беспорядки, современные технологии, общественный порядок.

Ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda harbiy xizmatchi va hodimlarni o‘qitishda ularda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinchlik va harbiy sharoitda Konstutsiya harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularga o‘z yurti va xalqi taqdirlari uchun yuksak ma’sulyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.[1]

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qadryatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o‘qitishda, ayniqsa, diniy ekstremizm g‘oyalariga berilib, yo‘ldan adashgan yoshlarni sog‘lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofiserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz”. [2] Yuqoridagilardan ko‘rinadiki biz harbiy kadrlarni o‘qitishda ularni avvalo vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkam shakllantirishimiz zarur.

Hozirgi kunga kelib kuch tuzilmalari oldida turgan murakkab vazifalardan biri bu ommaviy tartibsizlarni oldini olish bo‘yicha harakatlarda ishtirok etish va ushbu harakatlarda fuqarolar va shaxsiy tarkib orasida maksimal darajada kam talofat ko‘rish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda albatta eng asosiy rolni kuch



tuzilmalari shaxsiy tarkibining bilim darajasi va ular tomonidan vaziyatdan kelib chiqib mustaqil to‘g‘ri qaror qabul qabul qila olishlari muhim rol o‘ynaydi.

Ommaviy tartibsizliklar sodir bo‘lishi sabablarini tushunishga, alohida e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu fuqarolar farovonlik darajasini pasayishi hamda ularning yashash turmush sharoitlarini yomonlashib borishi yoki jamiyat jadalligi bilan o‘sishdan to‘xtashi bilan izohlash mumkin. Bugungi dunyo miqyosida tobora avj olayotgan, ommaviy tartibsizliklar kabi ijtimoiy-xavfli hodisalar, xalqaro hamjamiyatni sarosima ostida qoldirmoqda. Ushbu hodisalar vabo kabi yuqumli tus olib, butun dunyoni vaximaga solayotgani, har bir davlatda ushbu hodisalarni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan sergakliklarni oshirmoqda.

Ommaviy tartibsizliklar nafaqat siyosiy balki iqtisodiy, ijtimoiy, etnik, diniy, ekologik muammolar bo‘yicha ham yuzaga keladi. Lekin uning eng xavfli muammolarga siyosiy qarshilik ko‘rinishida tus olgan, davlatning konstitutsion tuzumiga qarshi chiqish turidagi tartibsizliklar kiradi. Siyosiy harakterga ega bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar asosan xalqning davlat boshqaruviga va saylovlarga bo‘lgan noroziliklari oqibatida yuzaga keladi. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlariga qarshi kayfiyatni tavfsiflab beruvchi ommaviy tartibsizliklar holatlari ham ma’lum. [3]

Ommaviy tartibsizliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lgan sharoitlarning va ularning har xil mojarolar, nizolar ko‘rinishidagi rivojlanish tahlillarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lsa bo‘ladi[4].

1. Ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi va tashkillashtirilishiga (salbiy tavsifdagi o‘ylab topilgan uydirma, ig‘volarni targ‘ib qilish, tarqatish, ta’qiqlangan namoyishlar va mitinglar tashkillashtirishga urinish hamda ularga norasmiy yo‘lboshchilarni paydo bo‘lishi).

2. Nizolarning boshlanishi (olomonni paydo bo‘lishi, yashirinchcha zo‘ravonlik harakatiga tayyorlanishi toshlar otish, to‘siqlarni buzish, avtomobilarni yoqish, huquqni muhofaza qilish organlarini qurollarini egallash maqsadida ularga va ularning ob‘yektlariga hujumlar qilish).

3. Ommaviy tartibsizliklarning eng yuqori nuqtasi (vayron qilish harakatlarini boshlanishi, madaniy yodgorliklarni vaxshiyarcha buzib tashlanishi, yong‘inlar uyushtirish, o‘g‘irlik va qotilliklar sodir qilish). Ushbu bosqichda portlatishlar, qo‘poruvchilik, terroristik harakatlar, binolarni egallash, tinch aholini garovga olish kabi holatlar kuzatiladi. Vaholanki ushbu pallada olomon norasmiy yo‘lboshchilar bo‘ysinuvidan chiqib ketishadi hamda ular boshqarib bo‘lmaydigan nazoratsiz kuchga aylanadi. O‘z qatorlariga yangi kuchlarni chorlaydi.



4. Ommaviy tartibsizliklarning so‘nishi. Huquqni muhofaza qilish organlarining ta’siri ostida olomon kichik guruhlarga parchalanadi, oqibatda tajovuzlar pasayadi. Ushbu bosqichda huquqni muhofaza qilish organlariga fuqarolar bilan muloqotlar qilishi keskinlashadi, ommaviy tartibsizliklarni yashirinishga ulgurgan, alohida o‘t olishi mumkin bo‘lgan o‘choqlargina qoladi.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy tajribalardan kelib chiqib, ommaviy tartibsizliklarni oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlashda normativ-huquqiy hujjatlarning mohiyatidan kelib chiqib uchta bosqichga e’tibor qaratiladi. Ya’ni bular:

a) Ommaviy tartibsizliklarni oldini olish bosqichi;

b) Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashish bosqichi (barcha texnik vositalar, himoya qurollari, xizmat qurollaridan foydalanishda “kasb madaniyati” buyruqlariga bo‘ysunish);

c) Yakuniy xatti-harakatlarni qonun doirasida amalga oshirish.

Ushbu jarayonlar bosqichlarini bilish, bir vaqtning o‘zida uning xavfliylik darajasini aniqlash va bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tayyorgarlik bosqichida shaxsiy tarkibni va texnik vositalarni shay holatga keltirib qo‘yish va jangovar shaylikni yuqori darajada bo‘lishini ta’minlash lozim. Ommaviy tartibsizliklarni oldini olishdan oldin komandir harbiy xizmatchilarga tadbir o‘tkaziladigan yoki o‘tkazilishi taxmin qilinayotgan joylarning geografiyasini, aholisini, etnopsixologiyasidan xabardor qilishi shart.

Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi tadbir ishtirokchilarida uyushqoqlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, tadbir qatnashchilari o‘zaro tanishligi bilan ajralib turadi. Ularda ma’lum ma’noda agressivlik mavjud, agressivlik bir joyda albatta janjal-to‘polonga moyillik mavjud bo‘ladi.[5] Bundan kelib chiqadiki ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb etilgan kuch tuzilmalari tartibsizliklarning boshlanishiga nima sabab bo‘lganligini bilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Tartibsizliklar boshlanishidan oldin ofitserlarda olomonni nazorat qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha aniq rejalar bo‘lishi kerak. Shuningdek ommaviy tartibsizliklar vaqtida ofitserlardan muloqot qilish qobilyati juda muhimdir. Olomon bilan to‘g‘ri olib borilgan muloqot keskin vaziyatni yumshatishga va zo‘ravonlik ishlatish xavfini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Huquqni himoya qiluvchi organlar tomonidan olomonni tarqatish taktik usullarini o‘rganish, masalan, olomon yig‘ilishi kutilayotgan vaqtida komendantlik soati e’lon qilinishi samarali hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar vaqtida huquqni



muhofaza qilish organi xarbiy xizmatchi (hodim)lari olomonni nazorat qilish emas, balki ularni boshqarishga o'rgatilishi kerak. Tinch namoyishlar o'tkazish vaqtida kuch ishlatish va qo'lga olishlarni amalga oshirishdan iloji boricha saqlanishi lozim. Shuningdek ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb etilgan harbiy xizmatchilar taktik anjom aslahalar va maxsus vositalardan oqilona foydalana olishi, ushbu vositalarni qo'llash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.[6]

Noqonuniy mitinglar, namoyishlar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga bevosita ishtirok etadigan ofitserlarni o'qitishda zamonaviy texnikalardan foydalana olishi va ularni boshqara olish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero hozirgi kunda butun dunyoda rivojlangan davlatlar olomonni tarqatish, yig'ilish va mitinglar zo'ravonlikka aylanib ketmasligi uchun zamonaviy texnikalarni faol qo'llab kelmoqda. Bunga misol qilib AQShda qo'llaniladigan Viseum Central (Viseum CiVMS) aqli video boshqaruvi dasturidir, ushbu dastur shahardagi olomon uchun potensial tartibsizlik zonalarini kuzatib boradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotdan foydalanib, siz avtomatik ravishda mumkin bo'lgan tartibsizliklarni aniqlashingiz mumkin. Olomonga qo'shilgan odamlar avtomatik ravishda yozib olinishi, indekslanishi va xabar qilinishi mumkin. Olomondagi odamlar soni xavf darajasiga yetganda, Viseumning tezkor o'rnatilgan CCTV tizimi potensial buzulish joylariga ko'chirilishi mumkin. Shu bilan birga, tartibsizliklar sodir etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik ravishda yig'iladi. Ushbu tizim ommaviy tartibsizliklar sodir etgan shaxs haqida avtomatik ravishda ma'lumot yig'adi. Viseum tizimi orqali huquq tartibot organlari vaziyatni to'liq nazorat qilish, tartibsizliklar tashkilotchilarini anqilash, ularni qo'lga olishda va ularga nisbatan videodalillar to'plashda xizmat qiladi.[7] Ushbu tizim bir qancha davlatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan va samarali natija berib kelmoqda.



1-rasm. Viseum Central tizimi kameralari orqali norozilik namoyishi o'tkazilayotgan hududni kuzatish va fuqarolarning shaxsiga aniqlik kiritish jarayoni.



Dunyoda sodir bo‘lgan norozilik namoyishlari va ommaviy tartibsizliklar shuni ko‘rsatmoqdaki, ommaviy tartibsizliklar kuchayib ketishiga internet tarmog‘i ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda barcha harbiy xizmatchilardan zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish bo‘yicha bilimlarni talab etadi.

O‘quv jarayonini tashkillashtirishda yangicha usullar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bilan o‘qitishning texnik vositalarini uyg‘unlikda qo‘llanilishi natijasida ta’lim oluvchilarning ish harakterlarini o‘zgarishiga, ta’lim jarayoniga qiziqishlarini ortishiga imkon bermoqda. Ma’lumki, o‘qitish vositalari o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. [8] Darhaqiqat hozirgi globallashuv zamonida bo‘lajak ofitserlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish talab etiladi. Zero ommaviy namoyish va mitinglar ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishini oldini olishda zamonaviy texnologiyalar asosida olomonni kuzatish, ularni harakat yo‘nalishini aniqlash va tarqatishda ushbu texnologiyalar juda zarur hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlatdan kelib chiqib jamoat tartibini saqlash va ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muofiqdir:

- jamoat tartibini saqlash va ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda ishtirok etadigan harbiy xizmatchi (xodim)larni o‘qitishda avvalo ularni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish, harbir ofitser va askarlarda vatanparvarlikni shakllantirishda milliy tarbiya va ahloqiy madaniyatni o‘zaro uyg‘un bo‘lishi zarur;

- ofitser va shartnama bo‘yicha harbiy xizmatchilarni ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha o‘qitishda ular bilan amaliy mashg‘ulotlarni ko‘proq tashkillashtirish, ushbu mashg‘ulotlarda maxsus vositalar va vaqtincha safdan chiqaruvchi qurollarni qo‘llash bo‘yicha bilimlarini yanada takomillashtirish;

- Noqonuniy mitinglar, namoyishlar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda Viseum Central (ViseumCi VMS) aqli video boshqaruvi dasturini amaliyotga tatbiq qilish va ushbu tizimni bo‘lajak ofitserlarga o‘rgatish;

- ofitser va shartnama bo‘yicha harbiy xizmatchilarni ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni faol o‘qitish jumladan, uchuvchisiz uchish moslamalaridan foydalanishni o‘rgatish.



Adabiyotlar:

1. K.X.Usmonov Harbiy vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanishida-axloqiy va huquqiy madaniyatning ro‘li.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 3-soni. 2017-yil. 10-yanvar
3. S.B.Rxmonov. “Dunyoda sodir bo‘lgan tartibsizliklarning ijtimoiy xavfi”
4. Ismoilov A.S., Rahmanov F.E., Akbarov L.I., Ommaviy tartibsizlikning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo‘llari: O‘quv qo‘llanma . –T.: TOHTBY, 2015. – 80 bet.
5. Maxmudov R.M., Ibraximov A.R., Ommaviy tartibsizliklarning oldini olishda ofitserlarning roli va o‘rni.
6. <https://havenger.com/blog/training-for-riot-control/>
- 7.<https://viseum.co.uk/company-news/riot-police-tactics/>
8. Azizzodjayeva SH.K. “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat”- T:. 2006.